UO‘K 904.1:72 (584.4)

SHAYBONIYLAR DAVRIDA SAMARQAND MADRASALARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOTDAGI O‘RNI

A.B. Rezvonova

Maqolada XVI asrda shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand shahrida barpo etilgan madrasalarning me’moriy xususiyatlari va ularning ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni o‘rganilgan. Shayboniylar davrida shakllangan Samarqand me’morchilik maktabining o‘ziga xos jihatlari tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Shayboniyxon madrasasi, Oliya xoniya madrasasi hamda Ko‘kgumbaz madrasalarining me’moriy kompozitsiyasi, bezak uslublari yoritilgan. Shayboniylar davri Samarqandda ta’lim va me’morchilik sohalarining rivojlanishi o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim bosqichni tashkil etgan bo‘lib, mamlakatda ilm-fan va madaniyat yuksalishiga turtki bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: *Shayboniyxon, shayboniylar madrasasi, Samarqand, ilm-fan, ta’lim, inshoot, obida, sulola, arxitektura, me’morchilik, qurilish tarixi.*

В статье рассматриваются архитектурные особенности медресе, построенных в Самарканде в XVI веке – в период правления династии Шейбанидов, и их роль в общественно-духовной жизни. На основе исторических источников и современной научной литературы анализируются особенности самаркандской архитектурной школы, сформировавшейся в эпоху Шейбанидов. Освещаются особенности архитектурной композиции и декоративного убранства медресе Шейбанихана, медресе Олия-Хания и медресе Кокгумбаз. Развитие образования и архитектуры в Самарканде в эпоху Шейбанидов стало важным этапом в истории узбекской государственности и способствовало подъему науки и культуры в стране.

Ключевые слова: *Шейбанихан, медресе Шейбани, Самарканд, наука, образование, сооружение, памятник, династия, архитектура, история строительства.*

Kirish

O‘zbekiston tarixi o‘zining chuqur ildizlari, boy madaniy merosi va ko‘p asrlik taraqqiyoti bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida munosib o‘rin egallaydi. Asrlar davomida shakllangan bu tarix ajdodlarimizning ma’naviy merosi, davlat boshqaruvi, ilm-fan va me’morchilik sohalaridagi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan. Mustaqillik yillarida tarix fanida milliy qadriyatlarni chuqur ilmiy asosda tadqiq etish, o‘z davlatchilik an’analarimizni qayta tiklash jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Shunga ko‘ra, XVI asrda hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi davridagi me’morchilik faoliyatini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shayboniylar sulolasi Movarounnahrda yuz yilga yaqin hukmronlik qilgan davr mobaynida markazlashgan davlatning shakllanishi, ilm-fan, madaniyat, san’at va me’morchilikning taraqqiyotiga katta turtki berdi. Ayniqsa, shayboniylar davrida Samarqand shahrining siyosiy, madaniy va ilmiy markaz sifatidagi nufuzi tiklanib, bunyodkorlik an’analari yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu jarayonni tahlil etish, o‘sha davr me’moriy kompozitsiyalarining uslubiy xususiyatlarini zamonaviy me’morchilik bilan solishtirish tarix fanining dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Material va metodlar

Maqolada qo‘yilgan muammo Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (1- va 2-jildlar), Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Abu Tohirxojaning “Samariya”, Sharafuddin Roqimiyning “Tarixi tomm” asarlari hamda arxiv materiallari asosida o‘rganildi.

Muammoni tadqiq etishda tarixiylik, xolislik tamoyillari, tizimlashtirish, qiyosiy, muammoviy-xronologik, statistik hamda fanlararo yondashuv ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

XVI asrda temuriylar sulolasi hukmronligi tugagach, Samarqand taxtini egallagan shayboniylar sulolasi shaharni obodonlashtirish, ilm-fan va madaniyat sohalarini rivojlantirish yo‘lida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Ularning siyosiy faoliyati nafaqat davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, balki ilm-ma’rifat va madaniy hayotni yuksaltirishga ham xizmat qildi. Shayboniylar davrida Samarqand me’morchilik, tasviriy san’at, tarixnavislik, adabiyot va hunarmandchilik kabi madaniyatning turli yo‘nalishlarida sezilarli yuksalish bosqichiga erishdi [1. B. 19]. Bu davrda yaratilgan me’moriy inshootlar va san’at namunalari o‘zining nafisligi, bezak uslublarining boyligi hamda tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Muhammad Shayboniyxon o‘z davrining ko‘plab hukmdorlari singari harbiy yurishlar bilan bir qatorda mamlakatda obodonchilik siyosatini ham faol amalga oshirgan. U nuragan me’moriy inshootlarni ta’mirlash, yangi binolar barpo etish, shaharsozlikni rivojlantirish, masjid va madrasalar qurilishiga alohida e’tibor qaratgan [2. B. 3]. Bu faoliyat natijasida nafaqat ko‘plab diniy va ma’rifiy obidalar qayta tiklangan, balki shaharning umumiy me’moriy qiyofasi ham yangilangan. Natijada shayboniylar davrida Samarqandning ijtimoiy va madaniy hayotida obodonchilik jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida siyosatchi, davlat arbobi, shoir hamda olim sifatida tanilgan Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar sulolasi vakillari Samarqand shahrida bir qator me’moriy obidalar va ma’naviy-ma’rifiy maskanlarni barpo etish hamda ularni obodonlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirganlar [3. B. 1–7]. Ushbu faoliyat natijasida shahar aholisi uchun madaniy va ma’naviy dam olish imkoniyatlari yaratilgan. Shuningdek, XVI asr shayboniylar davlati tarixiga oid tadqiqotlar va vaqf hujjatlari tahlilidan aniqlanishicha, bu davrda Samarqand shahridagi masjidlar, madrasalar va boshqa diniy-ta’limiy inshootlarga alohida e’tibor qaratilgan [4. B. 519–522]. Natijada aholining ta’lim olish imkoniyatlari kengayib, ilm-ma’rifat tizimining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar vujudga kelgan. XVI asrning dastlabki yillarida temuriylar sulolasining poytaxti bo‘lgan Samarqand ketma-ket urushlar va siyosiy beqarorlik natijasida chuqur moddiy hamda ma’naviy tanazzul holatiga yuz tutgan edi. 1501-yilda shaharni to‘liq egallagan Muhammad Shayboniyxon Samarqandning avvalgi siyosiy, madaniy va iqtisodiy nufuzini tiklash yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar va bunyodkorlik ishlarini boshlagan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, “Shayboniyxon hukmronligi davrida siyosiy voqealar oqibatida tanazzulga uchragan madrasalar va xonaqolarni ta’mirlash hamda qayta tiklash bo‘yicha maxsus farmonlar chiqarilgan. Ushbu farmonlarda ta’lim muassasalari faoliyatini tiklash, mudarrislar va talabalar uchun zarur yashash sharoitlarini yaratish, vaqf mulklaridan ajratilgan daromadlar hisobidan ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, zakot va vaqf mablag‘laridan foydalanish orqali aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan” [2. B. 74]. Bu esa Shayboniyxon davrida diniy-ma’rifiy muassasalar bilan bir qatorda ijtimoiy adolat tamoyillariga ham alohida e’tibor qaratilganidan dalolat beradi.

Shayboniyxon va uning avlodlari hukmronligi davrida Samarqandda ijtimoiy, madaniy va ma’naviy sohalar bilan bir qatorda ta’lim tizimida ham muhim islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Muhammad Shayboniyxon tomonidan ta’lim sohasida olib borilgan o‘zgarishlar o‘sha davr uchun dolzarb ahamiyat kasb etgan. Professor I.Mo‘minovning “Samarqand tarixi” asarida qayd etilishicha, “Madrasalarda ta’lim olayotgan talabalar bilim darajasiga qarab uch toifaga – yuqori (oliy), o‘rta (avsat) va boshlang‘ich (adno) guruhlarga ajratilgan. Har bir toifaga mos tarzda stipendiya va oziq-ovqat ta’minoti – payok ajratilishi belgilangan. Bu tizim o‘sha davrda ta’lim jarayonining izchilligini, intizom va nazoratning qat’iy yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi. Madrasalarda darslarga muntazam qatnashish talabalar uchun majburiy bo‘lgan, mudarris va xizmatchilarning faoliyati esa doimiy nazorat ostida olib borilgan [5. B. 295]. Mazkur tartib-qoidalar shayboniylar davrida ta’lim jarayonining tashkil etilishida yuqori darajadagi tartib-intizom va mas’uliyat ta’minlanganini anglatadi.

Sovet davrida nashr etilgan ikki jildlik “Samarqand tarixi” asarida qayd etilishicha, “XVI asrning dastlabki o‘ttiz yili davomida, poytaxt Buxoroga ko‘chirilgunga qadar, Samarqand shahrida keng miqyosdagi qurilish ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, shahar hududida ko‘plab hashamatli binolar bunyod etilgan” [5. B. 296]. Mazkur ma’lumotlardan ko‘rinadiki, XV–XVI asrlarda Movarounnahrda temuriylar sulolasi hukmronligining barham topib, shayboniylar davlatining shakllanishi bilan bog‘liq siyosiy o‘zgarishlar me’morchilikning kompozitsion rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmagan. XVI asr madrasalarida o‘quv jarayoni tilshunoslik, mantiq, fiqh, hadisshunoslik va tafsir kabi fanlarni qamrab olgan bo‘lib, ularning mazmuni islom manbalariga tayangan. Ushbu ta’lim tizimi natijasida ilm-fan rivojida

sezilarli yuksalish kuzatilgan. Ayniqsa, shayboniylar davrida Samarqandda ta’lim muassasalari qurilishiga katta e’tibor berilib, madrasalar soni va miqyosi kengaygan. “Madrasa” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “oliy diniy-ta’limiy dargoh” ma’nosini anglatadi. Madrasalarda joylashgan o‘quv xonalari “hujra” deb yuritilgan bo‘lib, bu so‘z ham arabcha bo‘lib,“xona” ma’nosini bildiradi [5. B. 297].

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida keltirilishicha, Shayboniyxon o‘g‘li Temur Sultonni valiahd deb e’lon qilib, unga “xon” unvonini bergan hamda Samarqand hokimligini topshirgan. Muallif ta’kidlaganidek, hukmdorning oqilona boshqaruvi natijasida mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda tartib-intizom qaror topgan, viloyatlar osoyishtalikka erishgan va xavf-xatarlar bartaraf etilgan [6. B. 57]. Ushbu ma’lumotdan anglashiladiki, Muhammad Shayboniyxon Samarqand shahriga alohida e’tibor bilan yondashgan, uni o‘z davrining siyosiy va madaniy markazi sifatida rivojlantirishga intilgan hamda eng ishonchli sarkarda va amaldorlarini bu yerga hokim etib tayinlagan.

“Abdullanoma” asarida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, Muhammad Shayboniyxon XVI asrning birinchi yarmida Samarqanddagi Registon maydonining me’moriy tuzilishiga ayrim o‘zgarishlar kiritgan. Registon maydonining shimoliy qismida Oliya xoniya madrasasining qurilishi amalga oshirilgan. Muallifning fikricha, “Bu madrasa o‘zining ulug‘vorligi bilan ajralib turgan bo‘lib, u “umid maydoni singari keng va osmon gumbazidek baland bo‘lishi kerak edi” [6. B. 298]. Bu esa Shayboniyxon davrida Samarqanddagi me’morchilik ishlariga yuksak estetik va kompozitsion talablar qo‘yilganidan dalolat beradi.

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida keltirilishicha, Muhammad Shayboniyxon 1510-yilda Marv yaqinidagi Mahmudiy qishlog‘ida Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlariga qarshi bo‘lgan jangda halok bo‘lgan [7. B. 21]. Tarixiy manbalarda bu jang “Surx kuloq” yoki “Qizilboshlar jangi” nomi bilan tilga olinadi. O‘sha davr tarixchilari ma’lumotlariga ko‘ra, Shayboniyxon 63 yoshida, muborak ramazon oyining juma kunida jang maydonida shahid bo‘lgan. Shu bois ayrim tarixiy manbalarda u “Shahidxon” nomi bilan ham tilga olinadi [6. B. 298]. “Abdullanoma” asarida keltirilishicha, “Shayboniyxonning boshsiz jasadi Samarqandga olib kelingan va u o‘z farmoni bilan qurilgan madrasaning marmar supa ostiga dafn etilgan”. Mazkur madrasa keyinchalik “Shayboniyxon madrasasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Muhammad Temur o‘z otasining jasadini ushbu madrasa hududiga keltirib dafn ettirgach, inshoot Shayboniyxon nomi bilan atala boshlagan [8. B. 26].

Abu Tohirxo‘janing “Samariya” asarida keltirilishicha, mazkur madrasaning qurilishi Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temurxonning rafiqasi Mahdi Ulyo xonim tashabbusi bilan boshlangan. Keyinchalik, inshootning qurilish ishlari uning o‘g‘li Temur Muhammad Sulton (1514-yilda vafot etgan) tomonidan davom ettirilib, uning rafiqasi Mehr Sultonxonim tomonidan nihoyasiga yetkazilgan. Madrasa shahar ichkarisida, hazrati Shoh mozoriga olib boruvchi katta yo‘lning g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, Shayboniyxonning qabri ham mazkur madrasaning markaziy qismida, marmar supa ostida joylashgan [9. B. 26]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur madrasa daxmasida Shayboniyxon bilan bir qatorda sulola vakillari Mahmud Sulton (1503–1504-yillar oralig‘ida halok bo‘lgan), Mahdiy Sulton, Hamza Sulton (1511-yilda vafot etgan), Muhammad Temur Sulton (1514-yilda vafot etgan), Abulxayr Sulton (1511-yilda halok bo‘lgan), Yodgor Sultonim (1526-yilda vafot etgan), Shahribonu xonim (1535-yilda vafot etgan), Shoh Sulton xonim (1530-yilda vafot etgan), Qutlug‘ Muhammad Sulton (1545-yilda vafot etgan) hamda Suyunch Muhammad Sulton (1586-yilda vafot etgan) ham dafn etilgan. Bu holat madrasaning nafaqat ta’limiy, balki sulola tarixida diniy-ma’naviy yodgorlik sifatida ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Mehr Sultonxonim farmoniga muvofiq, Oliya xoniya madrasasining shimoliy qismida unga ko‘rinish jihatidan o‘xshash Xoniya madrasasi bunyod etilgan. Ushbu ikki inshoot lojuvard va zarhal koshinlar bilan bezatilgan katta peshtoq orqali o‘zaro birlashtirilgan bo‘lib, ularning umumiy kompozitsiyasi XVI asr me’morchiligida yangi uslubiy izlanishlar amalga oshirilganidan dalolat beradi. Manbalarda qayd etilishicha, Shayboniyxon va Mehr Sultonxonim madrasalari o‘z davrida yaxlit arxitektura ansamblini tashkil etgan [5. B. 299]. Mazkur madrasalarda jami oltita mudarris faoliyat yuritgan: ularning uch nafari oliy toifali, ikki nafari muid (yordamchi o‘qituvchi) va biri musdir (ilmiy rahbar) lavozimida bo‘lgan. Samarqandda rus ma’muriyati hokimiyati o‘rnatilgan 1868-yildan so‘ng ham bu madrasada ikki nafar mudarris ta’lim jarayonini davom ettirgani haqidagi ma’lumotlar mavjud [10. B. 21]. Arxiv hujjatlari va tarixiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, Shayboniyxon madrasasida o‘qiyotgan talabalar “oliy” (yuqori), “avsat” (o‘rta) va “adno” (quyi) bosqichlarga bo‘lingan. Mazkur ta’lim tizimini hozirgi davrdagi bakalavr va magistrlik darajalari bilan qiyoslash mumkin [11. B. 74]. Bu holat shayboniylar davrida ilm-fan, adabiyot va ta’lim sohalariga katta e’tibor qaratilganini, ta’lim jarayoni aniq darajaviy tizim asosida yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

XVIII asrda Samarqanddagi Shayboniyxon va Mehr Sultonxonim (Oliya xoniya) madrasalari jiddiy

zarar ko‘rgan. Biroq XVIII asr oxirlariga kelib, Oliya xoniya madrasasi qisman ta’mirlanib, faoliyatini davom ettirgan. Mazkur madrasa o‘z davrining yirik ilmiy-ma’rifiy maskanlaridan biri bo‘lib, unda diniy-falsafiy yo‘nalishdagi bahs va munozaralar o‘tkazilgan, ularning ba’zilarida xonning o‘zi ham shaxsan ishtirok etgan. Manbalarda ushbu madrasada boy kutubxona mavjud bo‘lgani, unda ko‘plab diniy va ilmiy asarlar to‘plangani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Afsuski, Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, 1874-yilda shahar infratuzilmasini o‘zgartirish bahonasida madrasa joylashgan hududdan yangi ko‘cha o‘tkazilishi sababli bino butunlay buzib tashlangan. Daxma (mozor) esa hozirgi Registon maydoni atrofiga ko‘chirilgan. Shayboniylar davri vaqfnomalarida mazkur madrasa quyidagicha tavsiflangan: “Bu ikki madrasa Misr ehromlari singari bahaybat bo‘lib, egizaklar singari bir-biriga o‘xshash, sevimli qizning ikki yuzi singari qalbni quvontiradi. Darhaqiqat, ular Samarqand davlatining shon-shuhratini oshirishga xizmat qiladi” [5. B. 299]. Ushbu tasvirlardan madrasalarning yagona me’moriy kompozitsion majmuani tashkil etgani, ya’ni Shayboniyxon va Mehri Sultonbegim madrasalari bir-birini to‘ldiruvchi shaklda qurilganini anglash mumkin.

Mutaxassislarning qayd etishlaricha, “Bu ikki madrasa xalq orasida “Ho‘rjin madrasalari” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Mazkur o‘quv dargohi nafaqat me’moriy go‘zalligi, balki ilmiy salohiyati bilan ham ajralib turgan. Ayniqsa, bu madrasaning kutubxonasi mamlakat miqyosida mashhur bo‘lib, unda ko‘chirilgan va dars jarayonlarida o‘qitilgan bir qancha asarlar hozirda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda” [11. B. 118].

Abdullaxon II Samarqandda olib borilgan urushlar oqibatida vayron bo‘lgan inshootlarni ta’mirlash ishlarini amalga oshirgan hukmdorlardan biri sanaladi. U o‘z farmoni bilan viloyat hududida joylashgan, buyuk amirlar va ularning avlodlariga tegishli bo‘lgan, buzilish va yemirilish xavfiga duch kelgan imoratlarni qayta tiklashni buyurgan. Mazkur ishlarni amalga oshirishda Qulbobo Ko‘kaldosh faoliyat yuritib, tuzatish va qurilish jarayonlarida alohida fidoyilik namoyon etganligi qayd etiladi [8. B. 316]. Samarqandda 1529–1530-yillarda hukmronlik qilgan Ko‘chkunchixon haqida manbalarda “Marhamatli bu xonning ko‘plab ezgu fazilatlari va ta’rifga sazovor ishlari mavjud edi. Inson tabiati ko‘pincha yomon amallarga va befoyda istaklarga moyil bo‘lishiga qaramay, u zot o‘z tabiiy fazilatlariga muvofiq ish tutib, xalqiga yomonlikni ravo ko‘rmagan” deb qayd etiladi [7. B. 31]. Tadqiqotchilarning fikricha, Ko‘chkunchixon hukmronligi davrida Movarounnahrda ilm-fan, adabiyot, san’at va madaniyat sohalari sezilarli darajada rivoj topgan. Shu davrda bir qancha asarlar turkiy tilga tarjima qilingan. Sharafuddin Roqimiy o‘zining tarixiy ma’lumotlarida Ko‘chkunchixon tashabbusi bilan Samarqandda bir qator qurilish ishlari amalga oshirilganini, jumladan, “Alayka Ko‘kaldosh jome masjidi”ga marmardan zinalar qurdirilganini ta’kidlaydi. U “Tarixi tomm” asarida: “Ushbu ulug‘ masjidda Ko‘chkunchixon ibn Abulxayrxon yaxlit marmar toshdan minbar bunyod etgan, bu minbar balandligi bilan yetti qavat osmonni eslatadi, imoratning bunday go‘zalligini hech bir xatib ilgari ko‘rmagan edi” deb yozadi [12. B. 83–84].

Ko‘chkunchixon hukmronligi davrida (1530–1533) Registon ansamblining janubiy qismida Ulug‘bek davriga mansub me’moriy majmuaning bezagini boyituvchi yirik “Ko‘kgumbaz” madrasasi bunyod etilgan [5. B. 299]. Ushbu inshootning asosiy bunyodkori Ko‘chkunchixonning o‘g‘li Abu Saidxon bo‘lib, u madrasani Ulug‘bek madrasasining janub tomonida qad rostlagan holda qurdirgan. Ko‘chkunchixon qariyb yigirma yillik faoliyatidan so‘ng vafot etgan va o‘g‘li tomonidan barpo etilgan “Ko‘kgumbaz” madrasasining hududida dafn etilgan. Abu Saidxon otasining vafotidan keyin uch yil davomida hukmronlik qilgan. U hijriy 940-yil (milodiy 1533–1534)da vafot etgach, o‘zi qurdirgan madrasaning hovlisidagi daxmaga dafn qilingan. Mazkur daxmada, manbalarga ko‘ra, bir necha shayboniy sultonlar, shuningdek, Abu Saidxonning rafiqasi va farzandlari ham mangu qo‘nim topgan. Abu Tohirxoja o‘zining “Samariya” asarida XIX asrdagi holatni tasvirlab, “Bu daxma hozirgi kunda Childuxtaron nomi bilan ataluvchi hovlining o‘rtasida joylashgan bo‘lib, to‘rtburchak shaklda, vayron holatda saqlanmoqda” deb yozadi [9. B. 64].

Tarixiy manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, “Ko‘kgumbaz” madrasasining qurilishi aynan Abu Saidxon tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Madrasa me’moriy tuzilmasida ko‘k gumbaz markaziy o‘rinni egallagan bo‘lib, unda Samarqand shayboniylarining sag‘anasi — gumbazsimon zal shaklida barpo etilgan. Dastlab “Ko‘kgumbaz” deb atalgan bu madrasa keyinchalik “Childuxtaron” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Manbalarda Ko‘chkunchixon, uning uch o‘g‘li va uch nabirasining aynan shu joyda dafn etilgani qayd etiladi [13. B. 119]. Ushbu dafn toshlari kulrang qora marmardan yasalgan bo‘lib, o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Bu toshlar hozirda Samarqand muzeyida saqlanmoqda.

Rossiya imperiyasi bosqinidan so‘ng Samarqand shahri rus ma’muriyati tasarrufiga o‘tgach, olim G.A.Pankratev tomonidan shahar tarixi va undagi me’moriy obidalar o‘rganilgan hamda ularning fotosuratlari tayyorlangan. Tadqiqotchining 1910-yilda

yozgan ma’lumotlariga ko‘ra, Mirzo Ulug‘bek madrasasidan qariyb yuz qadam janubda joylashgan Ko‘chkunchixon madrasasi va maqbarasi hijriy 937 (1530) yilda qurilgan bo‘lib, unda Ko‘chkunchixon, o‘g‘illari Abu Saidxon (vaf. 940/1533) va Abdulla Bahodirxon (vaf. 947/1540), shuningdek, nabirasi Sulton Said Bahodirxon dafn etilgan [14. B. 125]. Pankratev qayd etishicha, rus qo‘shinlari istilosi davriga kelib, inshoot vayron holatga tushgan, gumbazi qulagan bo‘lsa-da, maqbara va qabr toshlari yaxshi saqlangan edi. Afsuski, keyingi yillarda ularning izlari ham yo‘qolgan. Rossiya imperiyasi davrida inshoot qarovsiz qolib, butunlay buzib tashlangan. Shunga qaramay, tarixiy manbalar XVIII asrgacha madrasa yaxshi holatda bo‘lganini va unda ta’lim jarayonlari davom etganini ko‘rsatadi.

Childuxtaron majmuasining reja tuzilishi, me’moriy shakli hamda badiiy bezaklari o‘zining kompozitsion yechimi jihatidan temuriylar davrida qurilgan Ishratxona va Oqsaroy inshootlariga o‘xshash bo‘lgan [5. B. 300]. Mazkur yodgorlikning katta qismi buzilib ketgani sababli, tadqiqotchilar uning dastlabki qiyofasini tiklashda aynan Ishratxona madrasasi va Oqsaroy maqbaralarining tashqi ko‘rinishiga tayanadilar. Childuxtaron majmuasi o‘zaro bog‘langan bir nechta binolardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy reja shakli to‘rtburchak kompozitsiyada yechilgan. Inshootning markaziy qismida ilgari bezakdor, muhtasham asosiy zal joylashgan. Zalning janubi-sharqiy tomonida miyonsaroy xonalarining joylashuvi aniqlangan. To‘rtta aylana zinapoya orqali ikkinchi qavatga chiqish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, bu qavatda bir nechta hujralar bo‘lgan. Binoning janubi-g‘arbiy qismi o‘zining mutanosib me’moriy tuzilishi bilan ajralib turadi. Ushbu qismda baland, qubbasimon peshtoq barpo etilgan. Peshtoqning pastki qismi ravoqchalar bilan bo‘lingan, ikki yonida esa ikki qavatli ayvonchalar joylashgan. Shimoli-sharqiy qismi esa nafis bezakli ravoqlar bilan pardozlangan. Ushbu me’moriy elementlardan kelib chiqib, Childuxtaron madrasasi Markaziy Osiyo hududida yangi konstruktiv uslubda barpo etilgan inshootlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, madrasa arxitekturasida bir-biri bilan kesishuvchi to‘rtta ravoq tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu yechim gumbazli inshootlarning mustahkamligini oshirgan hamda yangi texnik yechim sifatida shayboniylar davri me’morchiligida muhim bosqichni tashkil etgan [15. B. 140–141].

XVI asrda Samarqand me’morchiligida bezak san’ati, ayniqsa, mozaika va mayolika bilan pardozlash ishlari sezilarli darajada rivojlandi. Shu davrda kundal san’ati deb ataluvchi yangi bezak turi paydo bo‘lgan. Kundal bu – maxsus gil asosida qizil loy bilan bosilgan naqshlar tushirilgan, to‘q ko‘k rangli fon ustiga tilla qatlami bilan qoplangan va ustidan nozik naqshli bezaklar solingan dekorativ texnikadir. XVI asrga kelib, ushbu san’at turi yanada takomillashib, jamoat binolari, madrasa va masjidlarning interyerlarini bezashda keng qo‘llanila boshlagan. Shu bilan birga, monumental inshootlarning tashqi ko‘rinishida ham yangicha bezak turlari paydo bo‘lib, ularning tarixiy qiyofasida o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y bergan [15. B. 142–143]. Biroq davlat poytaxtining Buxoroga ko‘chirilishi bilan shayboniy hukmdorlar Samarqandda qurilish ishlariga avvalgidek e’tibor qaratmay qo‘yganlar [5. B. 142–300]. Natijada shahardagi me’moriy faoliyat sustlashib, obodonchilik jarayonlari ancha pasaygani manbalarda ham qayd etiladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ayrim siyosiy va shaxsiy kamchiliklariga qaramay, Muhammad Shayboniyxon va uning avlodlari hukmronligi davrida Samarqand shahrida ilm-fan, shaharsozlik, me’morchilik va hunarmandchilik sohalarida muhim yutuqlarga erishilgan. Shayboniylar sulolasi tomonidan olib borilgan islohotlar natijasida Samarqand nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-ma’rifat va madaniyat o‘chog‘iga aylangan. Bu davrda madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, hammomlar va boshqa ijtimoiy inshootlarning barpo etilishi ilmiy-ma’naviy hayotning yuksalishida muhim omil bo‘ldi.

Manbalardagi ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, Muhammad Shayboniyxon harbiy yurishlar bilan bir qatorda mamlakatda obodonchilik ishlarini ham yo‘lga qo‘ygan. U tomonidan nuragan inshootlar ta’mirlangan, yangi madrasalar va masjidlar qurilgan, shaharlarning me’moriy qiyofasini yangilashga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, Samarqandda Shayboniyxon, Mehr Sultonxonim va Mahdi Ulyo xonim tomonidan qurilgan madrasalar o‘z davrining yirik ilmiy-ma’rifiy markazlari sifatida tanilgan. Umuman olganda, shayboniylar sulolasi davrida markazlashgan davlatning shakllanishi ilm-fan, madaniyat, san’at va me’morchilikning yuksalishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tarixiy jarayonlar o‘zbek davlatchiligi va madaniyatining rivojida muhim bosqich bo‘lib, shayboniylar davri merosi bugungi kunda ham mamlakatimizning boy ma’naviy merosi sanaladi.

Adabiyotlar:

1. *Қулматов Ш., Бердимуродов А*. Самарқанд ёдгорликлари. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2017. – 19 б.

2. *Муқимов З*. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Тошкент: Адолат, 2007. – 154 б.

3. *Мирзаев Б.Н*. Муҳаммад Шайбонийхон мадрасаси ёхуд малика Меҳри Султон хоним фаолияти хусусида баъзи мулоҳазалар // Тарих ва жамият. – 2021. – №1 – Б. 19-23.

4. *Тўхтаев Ш*. Бухоро хонлиги совет даври тарихшунослигида // Китобда: “Фан тарихи ривожига академик А.Р.Муҳаммаджоновнинг қўшган ҳиссаси”. – 2020. – Б. 519–522.

5. *Мўминов И.М*. Самарқанд тарихи.– Тошкент: Фан. – 1971. – 295 б.

6. *Ҳофиз Таниш ал-Бухорий*. Абдулланома. Биринчи китоб (Таржимон С.Мирзаев). – Тошкент: Шарқ. – 1999. – 416 б.

7. *Ҳасанхожа Нисорий*. Музаккири аҳбоб. Дўстлар ёдномаси. – Тошкент: Халқ мероси. – 1989. – 21 б.

8. *Ҳофиз Таниш ал-Бухорий*. Абдулланома. Иккинчи китоб. (Таржимон С. Мирзаев). – Тошкент: Шарқ. – 2000. – 140 б.

9. *Абу Тоҳирхожа*. Самария. (Таржимон А.Сатторий). – Тошкент: Камалак. – 1991. – 80 б.

10. *Семёнов А.А*. Шейбанихан и завоевание им империи Темуридов. // Материалы по истории таджиков и узбеков. – Сталинабад. – 1954. – 57 с.

11. *Абдусаттор Жуманазар*. Самарқанд таълим тизими ва мадрасалари тарихи. – Тошкент: Фан. – 2021. – 513 б.

12. *Шарафуддин Роқимий*. Тарихи томм. (Форсчадан таржима, луғат ва изоҳлар муаллифлари: Ҳ.Бобобеков ва Н.Норқулов). – Тошкент: Маънавият, 1998. – 89 б.

13. *Замонов А*. Ўрта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари – Тошкент: Bayoz. – 2020. – 119 б.

14. *Панкратьев Г.А*. Исторический памятники г. Самарканда. – Самарканд: Типо-Литография Т-ва Б.Газаров и К.Слиянов. – 1910. – 14 с.

15. *Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R*. Me’morchilik. – Тошкент: Tafakkur. – 2010. – 361 b.

FORMATION OF THE MADRASAS OF SAMARKAND DURING THE SHAYBANID PERIOD AND THEIR ROLE IN SOCIAL AND SPIRITUAL LIFE

A.B. Rezvonova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 25-31.

[1]National University of Uzbekistan, Tashkent, str. University, 4 (Uzbekistan). E-mail: devonxona@nuu.uz

Key words: *Shaybani Khan, Shaybani Madrasah, Samarkand city, science, education, building, monument, dynasty, architecture, history of construction.*

The article provides an in-depth analysis of the madrasahs constructed in Samarkand during the reign of Muhammad Shaybani Khan and the Shaybanid dynasty, focusing on their architectural layout, decorative features, and historical significance. Based on primary historical sources such as Abdullanoma by Hofiz Tanish al-Bukhari (Volumes I and II), Muzakkiri Ahbob by Hasan Khoja Nisari, Samariya by Abu Tohirkhoja, and Tarikhi Tomm by Sharafuddin Rokimiy, as well as archival documents and recent scholarly studies, the paper examines how these institutions reflected the social, spiritual, and cultural values of the 16th century. Special attention is given to the architectural ensemble formed by the Shaybani Khan and Mehr Sultan Khanum madrasahs, characterized by lojuvard and gilded tile decorations and the innovative use of monumental peshtaqs that illustrate the artistic style of the Samarkand architectural school.

In addressing the research problem, the study employs historical, systematic, comparative, problem-chronological, statistical, and objective analysis methods. An interdisciplinary approach combining elements of history, architecture, and cultural studies was applied to ensure a comprehensive understanding of the subject. The use of both narrative and documentary sources makes it possible to reconstruct the development of educational and architectural traditions in Shaybanid-era Samarkand. The scientific novelty of the research lies in identifying the continuity between the Timurid and Shaybanid architectural schools and in demonstrating how centralized state formation under the Shaybanids influenced the expansion of scientific, educational, and cultural life in Transoxiana.

The study highlights that during the hundred-year rule of the Shaybanid dynasty, major reconstruction projects, including the repair of dilapidated buildings and the construction of new mosques and madrasahs, revitalized Samarkand's urban and cultural environment. Historical records indicate that students in the madrasahs were divided into three academic levels oliya (high), avsa*t* (intermediate), and adno (basic) which parallels the modern bachelor's and master's education framework. As a result, the madrasahs of Shaybani Khan and his successors became leading centers of knowledge, spiritual learning, and architecture. This architectural and intellectual heritage remains a lasting symbol of Uzbekistan's scientific and cultural development during the Shaybanid period.

References:

1. Qulmatov, Sh., Berdimurodov, A. (2017) *Samarqand yodgorliklari* [Samarkand Monuments]. Samarkand: Imam Bukhari International Center.

2. Muqimov, Z. (2007) *Shayboniylar davlati va huquqi* [The State and Law of the Shaybanids]. Tashkent: Adolat.

3. Mirzayev, B.N. (2021) Muhammad Shayboniyxon madrasasi yoxud malika Mehri Sulton xonim faoliyati xususida ba'zi mulohazalar [Some considerations about the activities of Mehr Sultan Khanum and the Madrasa of Muhammad Shaybani Khan]. History and Society, (1). Pp.19-23.

4. Tukhtayev, Sh. (2020) Buxoro xonligi sovet davri tarixshunosligida [The Bukhara Khanate in Soviet Historiography]: In: '*The contribution of academician A.R.Mukhammadjonov to the development of the history of science'*. Proceedings of the Conference on the History of Science Development, October 30, 2020. Pp. 519-522.

5. Muminov, I.M. (1971) *Samarqand tarixi* [History of Samarkand]. Tashkent: Fan.

6. Hafiz Tanish al-Bukhari. (1999) Abdullanoma [Abdullanoma]. Book One. Tashkent: Sharq.

7. Hasan Khoja Nisari. (1989) Muzakkiri ahbob [Memoirs of Friends]. Tashkent: 'Khalk merosi' Publishing House.

8. Hafiz Tanish al-Bukhari. (2000) Abdullanoma [Abdullanoma]. Book Two. Tashkent: Sharq.

9. Abu Tohirkhoja. (1991) Samariya [Samariya]. Tashkent: Kamalak.

10. Semyonov, A.A. (1954) *Shejbanihan i zavoevanie im imperii temuridov* [Shaybani Khan and his conquest of the Timurid Empire]. In: *Materialy po istorii tadzhikov i uzbekov* [Materials on the History of Tajiks and Uzbeks]. Stalinabad.

11. Jumanazar, A. (2021) Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi [The History of the Education System and Madrasahs of Samarkand]. Tashkent: Fan.

12. Rokimiy, Sharafuddin. (1998) Tarixi Tomm [Tarikhi Tomm]. Tashkent: Ma'naviyat.

13. Zamonov, A. (2020) *O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari* [Some Unknown Pages from the Lives of Medieval Historical Figures]. Tashkent: Bayoz.

14. Pankratyev, G.A. (1910) *Istoricheskie pamyatniki g. Samarkanda* [Historical Monuments of the City of Samarkand]. Samarkand: Tipo-Litografiya T-va B.Gazarov i K.Sliyanov.

15. Vakhitov, M.M., Mirzayev, Sh.R. (2010) *Me'morchilik* [Architecture]. Tashkent: Tafakkur.

Muallif haqida ma'lumot:

REZVONOVA Aziza Bahodirovna – O'zbekiston Milliy universiteti Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: rezvonovaaziza@gmail.com